# TILSHUNOSLIK FANIGA HISSA QO‘SHGAN OLIMLAR

**Komilova Nozima Azizbek qizi**
Xorijiy filologiya va turizm fakulteti
Filologiya va tillarni o‘qitish:
Xitoy tili yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Tel.: +99895 4513509
**Kabulova U.S.**
Ilmiy maslahatchi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23863072

**Annotatsiya:** Maqolada tilshunoslik fanining shakllanishi va rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan olimlarning ilmiy merosi yoritilgan. Qadimgi hind, arab, xitoy va turkiy tilshunosligidan qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, strukturalizm va generativ grammatikagacha bo‘lgan yo‘l tahlil qilinadi. Panini, Sibavayh, Xu Shen, Mahmud Koshg‘ariy, Alisher Navoiy, V. fon Humboldt, F. de Sossyur va N. Chomskiy kabi olimlarning qarashlari bayon etilgan. Ularning ilmiy merosining zamonaviy tilshunoslik va xitoy tilini o‘rganuvchilar uchun ahamiyati ko‘rsatilgan.
**Kalit so‘zlar:** tilshunoslik, til nazariyasi, qiyosiy-tarixiy metod, strukturalizm, generativ grammatika, xitoy tilshunosligi, turkiy tilshunoslik.

**Аннотация:** В статье освещается вклад ученых в становление и развитие языкознания. Рассматривается путь от древнеиндийской, арабской, китайской и тюркской лингвистических традиций до сравнительно-исторического языкознания, структурализма и генеративной грамматики. Описаны взгляды Панини, Сибавайхи, Сюй Шэня, Махмуда Кашгари, Алишера Навои, В. фон Гумбольдта, Ф. де Соссюра и Н. Хомского. Показано значение их научного наследия для современного языкознания и для изучающих китайский язык.
**Ключевые слова:** языкознание, теория языка, сравнительно-историческое языкознание, структурализм, генеративная грамматика, китайское языкознание, тюркское языкознание.

**Abstract:** The paper examines the contribution of scholars to the formation and development of linguistics. It traces the path from the ancient Indian, Arabic, Chinese and Turkic linguistic traditions to comparative-historical linguistics, structuralism and generative grammar. The views of Pāṇini, Sibawayh, Xu Shen, Mahmud al-Kashgari, Alisher Navoi, W. von Humboldt, F. de Saussure and N. Chomsky are described. The relevance of their scientific heritage for modern linguistics and for learners of Chinese is shown.
**Key words:** linguistics, theory of language, comparative-historical linguistics, structuralism, generative grammar, Chinese linguistics, Turkic linguistics.

**摘要：**
本文阐述了学者们对语言学形成与发展的贡献，梳理了从古印度、阿拉伯、中国和突厥语言学传统到历史比较语言学、结构主义和生成语法的发展脉络，介绍了帕尼尼、西伯威、许慎、马赫穆德·喀什噶里、阿利舍尔·纳沃伊、洪堡特、索绪尔和乔姆斯基等学者的观点，并说明了他们的学术遗产对现代语言学及汉语学习者的意义。

**关键词：**
语言学，语言理论，历史比较语言学，结构主义，生成语法，汉语语言学，突厥语言学

Til insoniyat tafakkuri, madaniyati va tarixiy xotirasining asosiy tashuvchisidir. Uni ilmiy o‘rganish ehtiyoji qadim zamonlardayoq, muqaddas matnlarni to‘g‘ri o‘qish va saqlash zaruratidan kelib chiqqan [1.5]. Tilshunoslik fan sifatida uzoq taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi: dastlab amaliy grammatika va lug‘atchilik sifatida shakllandi, XIX asrda qiyosiy-tarixiy metod asosida mustaqil fanga aylandi, XX asrda esa tizimli-struktur va generativ yondashuvlar bilan boyidi [5.8;9]. Bu yo‘lning har bir bosqichi muayyan olimlarning nomi bilan bog‘liq. Shu sababli tilshunoslik tarixini ularning ilmiy merosi orqali o‘rganish nafaqat tarixiy, balki nazariy jihatdan ham muhimdir. Ayniqsa, xitoy tili yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun bu masala alohida ahamiyatga ega, chunki xitoy yozuvi va grammatikasi ko‘pgina boshqa tillardan keskin farq qiladi va ularni chuqur anglash umumiy tilshunoslik asoslarini bilishni talab etadi. Mazkur maqolaning maqsadi tilshunoslik fanining rivojiga katta hissa qo‘shgan olimlarning asosiy g‘oyalarini davrlar bo‘yicha tizimlashtirish va ularning bugungi kundagi ahamiyatini ko‘rsatishdir.Hind olimi Panini miloddan avvalgi V–IV asrlarda yashagan deb hisoblanadi. Uning “Ashtadhyayi” asari sanskrit tilining fonetik, morfologik va so‘z yasalish qoidalarini qariyb to‘rt ming qisqa qoida (sutra) shaklida mantiqiy tizimga solgan [2.5]. Asarning aniqligi va ixchamligi XX asr tilshunoslarini ham hayratga solgan; xususan, amerikalik struktur tilshunos L. Blumfild Panini grammatikasini juda yuksak baholagan [3.1].Arab tilshunosligining asoschisi Sibavayh (VIII asr) o‘zining “Al-Kitob” asarida arab tili grammatikasini ilk bor tizimli bayon etdi [4.5]. Keyinchalik Zamaxshariy (1075–1144) “Al-Mufassal” asarida arab grammatikasini ixcham va izchil shaklga keltirdi [5.5].Xitoy tilshunosligida alohida o‘rinni Xu Shen (taxminan 58–147) egallaydi. Uning “Shuowen jiezi” lug‘ati 9353 ta ieroglifni 540 ta kalit (radikal) bo‘yicha tasniflagan va har bir belgining tuzilishini izohlagan birinchi yirik asardir. Kalitlar bo‘yicha tasniflash tamoyili xitoy lug‘atchiligida hozirgacha saqlanib kelmoqda.Turkiy tilshunoslik tarixida Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” (1072–1074) asari alohida o‘rin tutadi. Asarda turkiy xalqlar va ularning lahjalari tavsiflangan, so‘zlarning fonetik va grammatik xususiyatlari ko‘rsatilgan, turkiy tillarning ilk tasnifi va xaritasi berilgan [6.10]. Shu bois Koshg‘ariy turkiy qiyosiy tilshunoslikning asoschisi sanaladi.Alisher Navoiy (1441–1501) “Muhokamat ul-lug‘atayn” (1499) asarida turkiy va fors tillarini taqqoslab, turkiy tilning leksik boyligi, so‘z yasalishi va fe’l shakllarining rang-barangligini ilmiy dalillar bilan asoslab berdi [7.11]. Bu asar qiyosiy tilshunoslikning dastlabki namunalaridan biri hisoblanadi.XIX asrda tilshunoslik mustaqil fan sifatida shakllandi. Nemis olimi Frans Bopp 1816-yilda sanskrit, yunon, lotin, fors va german tillaridagi fe’l tuslanishini qiyoslab, ularning qarindoshligini ilmiy asosladi [8.5;8].

Daniyalik olim Rasmus Rask va nemis olimi Yakob Grimm esa tovush o‘zgarishlarining muntazam qonuniyatlarini aniqladi. Bu qonuniyatlar keyinchalik qiyosiy-tarixiy metodning asosiga aylandi.Vilgelm fon Humboldt (1767–1835) tilni tayyor mahsulot emas, balki doimiy faoliyat (energeya) sifatida talqin qildi, til bilan xalq tafakkuri o‘rtasidagi bog‘liqlikni va tilning “ichki shakli” g‘oyasini ilgari surdi [9.4]. Uning qarashlari umumiy tilshunoslikning nazariy poydevoriga aylandi.Polyak asilli rus olimi Ivan Boduen de Kurtene (1845–1929) fonema tushunchasini ilmiy muomalaga kiritdi va tovushlar alternatsiyasi nazariyasini yaratdi [10. 9]. Uning ishlari Qozon tilshunoslik maktabining shakllanishiga asos bo‘ldi va keyingi fonologik tadqiqotlarga yo‘l ochdi.Shveysariyalik olim Ferdinand de Sossyur (1857–1913) zamonaviy tilshunoslikning asoschisi hisoblanadi. Shogirdlari tomonidan 1916-yilda nashr etilgan “Umumiy tilshunoslik kursi” asarida til va nutq (langue va parole), til belgisining ikki tomoni (ifodalovchi va ifodalanmish), sinxroniya va diaxroniya tushunchalari izchil bayon etildi [11.7]. Sossyurga ko‘ra, til o‘zaro bog‘liq elementlardan tuzilgan tizimdir va har bir element o‘z qiymatini boshqa elementlarga qarama-qarshiligi orqali oladi [12.7].Amerika tilshunosligida Edvard Sapir “Til” (1921) asarida tillarning tuzilishini va til bilan madaniyat aloqasini tahlil qildi [13.6]. Leonard Blumfild esa tilni o‘rganishda kuzatiluvchi faktlarga tayanadigan deskriptiv metodni ishlab chiqdi [14.1]. Praga tilshunoslik maktabi vakillari N. S. Trubetskoy va R. Yakobson fonologiyani mustaqil sohaga aylantirdi: Trubetskoyning “Fonologiya asoslari” kitobida fonemalarning o‘zaro qarama-qarshiliklar tizimi tavsiflandi [15.8;9]. Rossiyada L.V.Shcherba boshchiligidagi Leningrad fonologik maktabi va V. V. Vinogradovning grammatika nazariyasi sohasidagi ishlari ham jahon tilshunosligiga katta hissa bo‘ldi [16.8;9]. Roman Yakobson (1896–1982) tovushlarni ajratuvchi belgilar (differensial belgilar) nazariyasini ishlab chiqib, fonologiyani universal asosga qo‘ydi, shuningdek, til funksiyalari haqidagi ta’limoti bilan nutqiy muloqot nazariyasiga katta hissa qo‘shdi [17.8;9]. Uning ishlari tilshunoslikni poetika, semiotika va nutq patologiyasi kabi sohalar bilan bog‘ladi. Shu tariqa XX asr birinchi yarmida tilshunoslik aniq tavsiflash va tizimli tahlil metodlariga ega mustaqil fan darajasiga ko‘tarildi. Noam Chomskiy 1957-yilda “Sintaktik tuzilmalar” kitobi bilan tilshunoslikda yangi yo‘nalishni boshlab berdi [18.3]. Uning fikricha, inson tilni o‘zlashtirish uchun tug‘ma qobiliyatga ega, chekli qoidalar yordamida esa cheksiz sondagi gaplar hosil qilinadi [19.3]. Chomskiy “universal grammatika” g‘oyasini ilgari surdi va tilshunoslikni kognitiv fanlar bilan yaqinlashtirdi. Uning nazariyasi formal tillar nazariyasi hamda kompyuter lingvistikasi rivojiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.Xitoyda Ma Jianzhong (1844–1900) “Ma shi wen tong” (1898) asarida klassik xitoy tilining ilk ilmiy grammatikasini yaratdi. Garchi u lotin grammatikasi namunasiga tayangan bo‘lsa-da, bu asar xitoy tilshunosligida grammatika fanining boshlanishi bo‘ldi. Zhao Yuanren (Yuen Ren Chao, 1892–1982) esa xitoy fonetikasi va grammatikasini zamonaviy tilshunoslik usullari bilan tahlil qildi; uning “Og‘zaki xitoy tili grammatikasi” asari bugungi kunda ham muhim manba hisoblanadi [20.2].O‘zbek tilshunosligining rivojiga Abdurauf Fitrat (1886–1938) katta hissa qo‘shdi. U o‘zbek tilining sarf va nahv qoidalarini ilmiy asosda bayon etib, adabiy til me’yorlarini belgilashda faol ishtirok etdi. Xitoy tilini o‘rganuvchilar uchun mazkur olimlarning g‘oyalari amaliy ahamiyatga ega. Masalan, Xu Shenning kalitlar tizimi ieroglifni tuzilishi bo‘yicha tahlil qilishga, Sossyurning belgi haqidagi ta’limoti ieroglifning shakl va ma’no munosabatini anglashga [21.7], Trubetskoyning fonologiya nazariyasi esa xitoy tilidagi bo‘g‘in tuzilishi va ohanglarni (tonlarni) farqlashga yordam beradi [22.8;9]. Chomskiy nazariyasi xitoy tili

sintaksisining o‘ziga xos tomonlarini, xususan, so‘z tartibi va yordamchi so‘zlarning rolini tushuntirishda qo‘llanadi [23.3]. Demak, tilshunoslik tarixini bilish til o‘rganish jarayonini ongli va tizimli qiladi.

Shunday qilib, tilshunoslik fani qadimgi grammatikachilar va lug‘atshunoslardan boshlab qiyosiy-tarixiy, struktur va generativ yondashuvlargacha rivojlandi [24.5;8]. Har bir davr olimlari o‘z zamonasi uchun yangi savollar qo‘ydi va yangi metodlar yaratdi. Paninining qoidalar tizimi [25.5], Koshg‘ariy va Navoiyning qiyosiy kuzatuvlari [26.10;11], Sossyurning tizim haqidagi ta’limoti [27.7] hamda Chomskiyning generativ nazariyasi [28.3] bugungi tilshunoslikning asosiy tayanchlaridir. Xitoy tilini o‘rganuvchilar uchun bu merosni bilish yozuv, fonetika va grammatikani chuqurroq anglashga yordam beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Bloomfield L. Language. – New York: Henry Holt.
2. Chao Y. R. A Grammar of Spoken Chinese. – Berkeley: University of California Press, 1968.
3. Chomsky N. Syntactic Structures. – The Hague: Mouton, 1957.
4. Humboldt W. von. Über die Verschiedenheit des menschlichen Sprachbaues. – Berlin.
5. Robins R. H. A Short History of Linguistics. – London: Longman, 1967.
6. Sapir E. Language. – New York: Harcourt, Brace and Company.
7. Saussure F. de. Cours de linguistique générale. – Paris: Payot.
8. Звегинцев В. А. История языкознания XIX–XX веков в очерках и извлечениях. – М.: Просвещение, 1964–1965.
9. Реформатский А. А. Введение в языковедение. – М.: Аспект Пресс, 1996.
10. Koshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk: 3 jildlik. – Toshkent: Fan, 1960–1963.
11. Navoiy A. Muhokamat ul-lug‘atayn.